



HAYOT SUG'URTASI VA INSON HAYOTINING QIYMATI

Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ish" kafedrası professori, (DSc)

email: obiddin@inbox.ru

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 9 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a2	Mazkur maqolada, "inson hayotining qiymati"ni baholashga asoslangan yondashuv hayot sug'urtasining munosib summasini aniqlashning ilmiy metodlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan; "inson hayotining qiymati"ni baholashga oid bir nechta metodlar keltirilgan va tahlil qilingan; hayot sug'urtasi summasini shakllantirishda, sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishda va uning yetarli darajadagi himoyasini ta'minlashda "inson hayotining qiymati"ni baholash metodologiyasidan maqsadli foydalanishning muhim jihatlari yoritilgan.
KEYWORDS	majburiy sug'urta, sug'urta mahsuloti, hayot sug'urtasi, hayot sifati, inson hayotining qiymati, hayot sug'urtasi summasi, hayot qiymatini baholash metodlari.

Kirish (Introduction/Введение)

Hayot sug'urtasi bugungi kunda har bir oilaning va har bir insonning farovonligini ta'minlashda tobora ortib borayotgan rol o'ynaydi. Hayotni sug'urtalash orqali inson kasal yoki nogiron bo'lgan taqdirda o'zini mablag' bilan ta'minlaydi, qo'shimcha nafaqa oladi, vafot etgan taqdirda esa, oilasi uchun moliyaviy kafolatlar yaratadi.

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, hayot sug'urtasi - bu fuqarolarga xizmat ko'rsatadigan, davlatga ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam beradigan va ichki investitsiya resurslari yetishmasligi muammosini yechishda ishtirok etadigan muhim sug'urta instituti hisoblanadi.

Hayot sug'urtasi summasi, ya'ni sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi zimmasiga oladigan javobgarlik miqdori cheklanmagan. Inson hayotining qiymatini ob'ektiv baholashning iloji yo'qligi sababli, u sug'urtalanuvchining xohishi va moliyaviy imkoniyatlariga qarab belgilanmoqda. Vaholanki, sug'urta summasi qanchalik yuqori bo'lsa, sug'urta mukofoti ham oshib boradi. Ko'p holatlarda, belgilangan sug'urta summasi miqdori sug'urtalanuvchining hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pensiya ta'minoti bilan bog'liq mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zarar to'liq qoplash uchun yetarli bo'lmaydi.

Hayot sug'urtasining munosib summasini aniqlashning ko'plab metodlari mavjud bo'lib, ular ilmiy yoki sodda bo'lishi mumkin. Ammo, hozirgi kunda barcha hayot sug'urtasi kompaniyalari yoki sug'urta agentlari mijozlari uchun hayot sug'urtasi summasini ilmiy nuqtai-nazardan baholamaydilar, aksincha, an'anaviy amaliy qoidalarga amal qiladilar. Bu esa, ko'pincha, inson hayotining yetarlicha sug'urtalanmasligi yoki keragidan ortiq sug'urta qilinishiga sabab bo'ladi.

Shu jihatdan, aytish mumkinki, hayot sug'urtasining munosib summasini belgilashning ilmiy metodlaridan biri - bu inson hayotining qiymatini baholashdir. Aynan, inson hayotining qiymatini baholash metodlaridan foydalanish vafot etgan shaxsning oilasiga yetkazilgan zarar miqdorini aniqroq baholash, aholining hayot sifatini oshirish, insonlar o'limi natijasida yetkazilgan zararni yuqori darajada qoplash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review / Литературный обзор).

Insonning puldagi qiymatini baholashga dastlabki urinishlardan biri 1691 yilda ingliz iqtisodchisi Uilyam Petti tomonidan amalga oshirilgan. U inson kapitali tushunchasidan millatning kapital qiymatini aniqlash

maqsadida foydalangan. Hayot sug'urtasida inson hayotining qiymati konsepsiyasiga ilk havola Djeykob Grin tomonidan uning "Agentning ishi: Konnektikut o'zaro hayot sug'urtasi kompaniyasi qanday tanishtiriladi" nomli kitobida berilgan. 1885 yilda chop etilgan ushbu kitobda inson hayotining puldagi qiymati hayot sug'urtasining asosi sifatida muhokama qilingan. D.Grinning so'zlariga ko'ra, inson hayotining puldagi qiymati - bu uning kelajakda va ehtimoldagi umri davomida haqiqatda ishlab topishi mumkin bo'lgan daromadi qiymatidir. Agar u vafot etsa, uning oilasi ham haqiqatda shu summani yo'qotadi, xuddi har qanday boshqa ko'rinishdagi mulklarini yo'qotgani kabi. Insonning hayoti - oilasining mulki, summa esa - qiymatdir (Greene, 1885).

Ismi sharifi inson hayotining qiymati konsepsiyasi bilan eng ko'p tilga olinadigan shaxs - bu Solomon Xyubner bo'lib, aynan uning xizmatlari sabab ushbu konsepsiya keng ommaga tanilgan va tan olingan. U o'zining "Hayot sug'urtasi" nomli asarida hayotni sug'urtalash uchun inson hayotining qiymati konsepsiyasidan foydalanishni muxokama qiladi. U bu asarining alohida bo'limini inson hayotining qiymatini kapitallashtrish va bu qiymatni kompensatsiya qilishga bag'ishlaydi. Uning nazariyasi asosida yotgan falsafa shundan iboratki, oilaga biznes sifatida qaralishi, u biznesni olib borish prinsiplari asosida boshqarilishi, iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan turmush urtog'ining hayotidan maxrum bo'lishi tufayli moliyaviy yo'qotishlardan va bankrotlikdan himoyalanihi kerak (Huebner, 1915).

Inson hayotining iqtisodiy qiymatini amaliyotga joriy etilishi 1924 yilda hayot sug'urtasi kompaniyalarining yillik qurultoyida Xyubnening (1924) ma'ruzasida rasmiy ovoza qilinishi bilan eng avjiga chiqdi. Xyubner (1927) "Hayot sug'urtasi iqtisodiyoti" asarini chop ettirib, inson hayotining qiymati konsepsiyasiga to'la asos soldi. Bu asarda, u inson hayotining qiymati konsepsiyasini hayot sug'urtasining iqtisodiy asosi, hayot qiymatining puldagi ifodasi, baholash metodi va ilmiy yondashuv sifatida muhokama qilgan.

Inson hayotining qiymati bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirgan Amerikalik tadqiqotchi Alfred Xofflander (1966) bu konsepsiyani matematik jihatdan ochib berdi va turli sohalarida uni qanday hayotga tatbiq etish mumkinligini ko'rsatdi. U inson tirik bo'lganda o'zining oilasiga odatda taqdim etishi mumkin bo'lgan qiymatni o'zida aks ettiradigan yagona summani aniqlash orqali hayot sug'urtasi uchun inson hayoti qiymatining matematik modelini ishlab chiqdi.

Xaslifa Xashim va Devid Servis (2013) o'zlarining inson hayotining qiymatini baholash metodlari yordamida hayot sug'urtasiga bo'lgan talabni modellashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarida asosiy e'tiborni ikkita metodga qaratgan, ya'ni inson hayotining qiymati va ehtiyojlar tahlili hayot sug'urtasiga talabni baholashning ilmiy metodi sifatida o'rganilgan. Har ikkala metod hayotni sug'urtalash amaliyotida foydalanilishi bo'yicha umum e'tirof etilgan metodlar hisoblanadi. Ammo, har ikkala metodda ham bir nechta kamchiliklar mavjud. Shu jihatdan, ushbu tadqiqotda hayot sug'urtasining munosib himoyasini ta'minlaydigan mukammal metodologiyani tashkil etish maqsadida har ikkala metod bir butunlikda "inson hayotining qiymati va ehtiyojlar tahlili" konsepsiyasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Inson hayotining qiymati konsepsiyasi dastlab hayot sug'urtasining asosi sifatida o'rganilgan bo'lsada, keyingi tadqiqotlar inson o'limi munosabati bilan adolatli tovon puli sifatida hayot qiymatini baholash metodologiyasiga qaratilgan. Jumladan, AQShda Ikkinchi jahon urushidan keyin harbiy operatsiyalarni byudjetlashtirish bilan bog'liq ravishda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qurbonlar uchun kompensatsiya miqdorini baholash maqsadida inson hayotining qiymatiga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan. Keyinchalik, mazkur aniqlangan qiymatlar inson hayot faoliyatining tinch sohalarida ham qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda esa, xorijiy ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda "inson hayotining qiymati" tushunchasi yetarlicha keng qo'llanilmoqda.

Masalan, Aganbegyaning (2012) ta'kidlashicha, inson hayotining qiymati - bu ishlab chiqarishda, transportda, xizmat paytida, shuningdek, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda vafot etgan insonning yaqinlariga qoplangan adolatli va yetarli miqdordagi tovon pulidir.

Zubes va Novikovlar (2018) tomonidan inson hayotining qiymatini vafot etgan shaxsning oilasiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni hisobga olgan holda baholash bo'yicha taqdim etilgan metodika aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol miqdori va o'z hayotidan mamnunlik darajasini muvozanatlashtirishga asoslangan. Mazkur metodika doirasida inson hayotining o'rtacha qiymati - bu o'limning ko'payishi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining pasayishi sharoitida insonlar o'z hayotidan qoniqishining normal darajasini tiklash uchun zarur bo'lgan individual iste'mol darajasining o'rtacha o'sishidir.

Shipisinaning (2013) xulosalariga ko'ra, inson hayotining sifatini aks ettiruvchi hayot qiymatini iqtisodiy baholash, asosan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi va jamiyatdagi inqirozli hodisalar paydo bo'lishining diagnostik ko'rsatkichidir. Inson hayotini qiymatli baholash dinamik jarayon (doimiy harakatda) bo'lib, iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgarishi (aholi daromadlari darajasi, ijtimoiy ta'minot darajasi, pensiya ta'minoti darajasi, yashash minimumi darajasi)ga bog'liq bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning salbiy dinamikasi jamiyatda inqirozli hodisalarning paydo bo'lishiga tashxis qo'yadi, mos ravishda ijobiy dinamika - inqirozdan uzoqlashadi. Mamlakatda fuqarolar hayotining qiymati pastligi ular hayotining qoniqsiz sifatini anglatadi, shuning uchun, u mamlakatda aholi turmush darajasi past bo'ladi. Bizning fikrimizcha ham, bu haqiqatni ko'pgina tadqiqotlar tasdiqlaydi: mamlakat qanchalik boy bo'lsa, u o'z fuqarolarining hayotini shunchalik qadrlaydi.

Trunov, Ayvar va Xarisovalarning (2006) tadqiqotlariga ko'ra, qonun bilan mustahkamlangan inson hayoti qiymatining yuqori bahosi davlatning inson o'limini kamaytirish, ishlab chiqarish va transport xavfsizligini oshirish hamda samarali sog'liqni saqlash tizimi bo'yicha choralarni rag'batlantiradi. U yoki bu davlatda inson hayotining qiymatini baholash hayot faoliyatining barcha sohalarida xavfsizlikni oshirish, xavfli omillarni bartaraf qilish va risklarni minimallashtirish uchun shu davlatning qancha mablag' sarflashga tayyorligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, inson hayotining qiymatini baholash hayot sug'urtasi summasining munosib miqdorini belgilashga, eng muhimi, insonlarning o'z hayotlari qadr-qimmatlarini anglashiga ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi hamda aholi hayotini ixtiyoriy sug'urtalashni, uchinchi shaxsning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararlar uchun javobgarlik sug'urtasini, shuningdek, nodavlat manbalar hisobidan vafot etgan shaxsning oilasiga kompensatsiya miqdorini oshirishni rag'batlantiradi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa metodlardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash metodi yordamida inson hayoti qiymatini

baholashning hayot sug'urtasi summasini belgilashdagi ahamiyati asoslandi hamda hayot sug'urtasiga iste'molchilik talabini rivojlantirishning ilmiy va amaliy jihatlari bashorat etildi.

Olingan natijalar va tahlillar (Results and analysis/Результаты и анализ).

Inson hayotining qiymati konsepsiyasi boquvchisi vafot etganda oilaning qancha daromad yo'qotishini aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda bu konsepsiya faqat hayotni sug'urtalashda emas, balki, boshqa bir qator sohalarida qo'llaniladi, jumladan, millatning qadrini baholash uchun aholini tahlil qilishda, jamg'arib boriladigan va investitsion sug'urta dasturlarida, baxtsiz hodisalar natijasida o'lim holati bo'yicha sud qarorlarida, uchinchi shaxsning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar bo'yicha javobgarlik miqdorini belgilashda, davlatning ijtimoiy siyosatini baholashda va h.k.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda inson hayotining "qiymati"ni baholash bo'yicha bir necha metodologiya mavjud bo'lsada, ularning hech biri mutlaq to'g'ri deb umum e'tirof etilmagan yoki yagona metodologiya sifatida tan olinmagan. Shunday bo'lsada, biz amalda qo'llanilayotgan bir necha metodlarni keltirishimiz mumkin:

- oddiy arifmetik hisob-kitoblarga asoslangan metod. Bunda, insonning ma'lumot darajasi, sog'lig'i, yoshi, real daromadi va shu kabi boshqa omillar hisobga olinadi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, mazkur inson kelgusidagi hayotining ma'lum bir davrida qancha mablag' ishlab topishga qodir ekanligi hisoblab chiqiladi. Aniqlangan summa uning hayoti taxminan qancha qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu metodologiya odatda, sug'urta kompaniyalari tomonidan hayotni umrbod sug'urtalashda sug'urta summasi miqdorini baholashda qo'llaniladi. Shunga o'xshash hisob-kitoblarni ba'zi davlat tuzilmalari tomonidan ham davlat xizmatchisi ish paytida vafot etgan holatda uning oilasiga to'lanadigan kompensatsiya miqdorini oldindan aniqlash uchun qo'llaniladi;

- ikkinchi metod ayrim davlatlarda (masalan, AQShda) atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi tomonidan qo'llaniladi. Bu yerda, hayotning shartli qiymati inson hayotini saqlab qolish nuqtai nazaridan, ba'zi ekologik talablarni kuchaytirish mantiqiy yoki yo'qligini hal qilish uchun ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, yangi kiritilgan tartib qoidalar inson hayotini uzaytirishi yoki uni saqlab qolishi lozim. Bunday hisoblash metodi ilgari amalga oshirilgan loyihalarni tahlil qilishga asoslanadi. Masalan, agar odamlar g'ayrat bilan chorahada har yili 3 ta piyodani mashina urib yuborib, o'lim holati sodir bo'lsa va ushbu xavfli joyda 3 mln. dollarlik piyodalar o'tish joyi qurilgan bo'lsa, shundan keyin odam halok bo'lishi va baxtsiz hodisalar to'xtagan bo'lsa, demak, bitta inson hayoti uchun xarajatlar 1 mln. dollarni tashkil qiladi. Bunda, barcha insonlar hayoti bir xil bo'lib, yosh mezonlari, shuningdek, daromad, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa mezonlar hisobga olinmaydi.

- hayot sohiblarining fikrlarini bilishga asoslangan metod, ya'ni ayrim insonlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'zini-o'zi baholashni ma'qul ko'rishadi. Ammo, ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu metodikaga shubha bilan qarashadi, uni haddan tashqari sub'ektiv va noaniq deb hisoblaydilar. Shunday bo'lsada, fikrimizcha, ushbu metodika insonlarning o'z shaxsining qiymati haqidagi tasavvurini namoyon qiladi. Masalan, "Sberbank hayot sug'urtasi" SK tomonidan 2019 yilda aholi (500 ming kishi) o'rtasida sug'urta summasini belgilash nuqtai-nazaridan inson hayotining qiymatini baholash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalarga asosan Rossiya Federatsiyasida erkaklar o'z hayotining "qiymati"ni o'rtacha hisobda 6,8 mln.rubлга, ayollar esa 4,6 mln. rubлга baholagan. Shuningdek, 18 dan 30 yoshgacha va 60 yoshdan katta insonlar mos ravishda 6,9 va 4,5 mln. rubлга sug'urta summasini belgilagan bo'lsa, ma'lumot darajasiga qarab ham ko'rsatkichlar farqlangan, jumladan, oliy ma'lumotlilar o'z hayotining qiymatini 6,9 mln. va tugallanmagan oliy ma'lumotga ega insonlar esa 4,5 mln. rubлга baholagan. Hayotining qiymatini eng yuqori baholaganlar Moskva (8 mln.), undan keyin Sankt-Peterburg (7,2 mln.)da yashovchilar bo'lsa, eng past darajada baholagan Barnaul (4,2 mln.) va Astraxan (4,3 mln.)da yashovchi insonlar bo'lgan (lenta.ru, 2019).

- muhim (kalit) shaxsning bevaqt o'limi tufayli davlat, jamiyat, biror jamoa, qarz beruvchi yoki biznes faoliyatining zararlarini hisoblashga asoslangan metod. Bunda, inson hayotining qiymati uning o'limi tufayli ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdori bilan baholanadi. Shu sababdan, zarar ko'ruvchi tomon uning hayotini shu summaga sug'urta qildiradi yoki shaxsning o'zini hisobidan sug'urta qilishini talab qiladi;

- jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi shartnomalarini tuzishda insonlar to'lashga rozi bo'lgan summani hisoblashga asoslangan metod. Bunda, bir qator olimlar tabaqalashtirilgan yondashuvlarni qo'llashni tavsiya qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, yiliga 20 mln. dollar ishlab topadigan kishi o'z hayotini 3 mln. dollarga sotishga rozi bo'lmaydi. Shu sababdan, hayotini risklardan himoyalash uchun turli insonlar turli narxlarini to'lashga tayyor. Chunki, har bir inson hayotining qiymati noyob va individual hisoblanadi (samoupravlenie.ru, 2020).

Inson hayotining qiymatini baholashda "oltin o'rtalik"ni topish uchun ayrim tadqiqotchilar tomonidan barcha metodlarni birlashtirishga harakatlar qilinmoqda. Ammo, hozircha ushbu urinishlarning hech biri yuz foiz muvaffaqiyatli deb tan olinmadi. Buning sababi, qo'llanilayotgan metodlar asosan inson o'limi bilan bog'liq kompensatsiya va sug'urta summalarini baholashga qaratilganligi uchun, jamoatchilik fikri nuqtai nazaridan, ular yetkazilgan zarami adolatli va yetarli darajada qoplashi lozim.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda hatto iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda ham, vafot etgan shaxsning oilasiga adolatli, yetarlicha, asoslangan kompensatsiyani ta'minlaydigan, inson hayotining "qiymati"ni baholashning umum e'tirof etilgan metodologiyasi mavjud emas (Bikov, 2007). Shunday bo'lsada, ayrim iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'yicha inson hayotining umumiy qiymati 4,6-4,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Jon boshiga iste'mol qiymati yiliga 10 ming AQSh dollaridan ortiq mamlakatlar guruhida inson hayotining qiymati 18,5 mln. gacha ko'tariladi. Shuningdek, daromadlari ushbu darajadan past bo'lgan mamlakatlar guruhida inson hayotining qiymati 0,5-1,9 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Jumladan, Rossiyada inson hayotining qiymati 51-61 mln. rubl (2017 yilgi narxlarida, rasmiy kurs bo'yicha taxminan 1 mln. AQSh dollari)ni tashkil qilgan (Zubes, Novikov, 2018).

Bizning fikrimizcha, inson hayotining qiymatini baholashda sug'urtalangan shaxsning oilasini munosib sug'urtaviy himoya bilan ta'minlash uchun hayotni qanday summaga sug'urtalashni aniqlash maqsadida to'rtta omildan foydalanish mumkin. Bu omillar: o'rtacha yillik daromad, daromad solig'i va ish haqidagi boshqa ushlanmalar, pensiyaga chiqishiga qolgan yillar, ushbu davr oxirida inflyatsiya hisobiga diskontlash stavkasi. Fikrimizcha, ushbu omillardan foydalanib daromad qiymatini aniq baholash mumkin. Shuningdek, bu metod matematik nuqtai-nazardan, insonning qolgan mehnatga layoqatli hayoti davomida kelajakdagi potensial daromadlarining aniq qiymatini ko'rsatadi.

Mazkur metodika bo'yicha inson hayotining qiymatini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$IHQ = (D_{yillik} - S_d) \cdot n / R \quad (1)$$

Bu yerda: IHQ – inson hayotining qiymati (joriy davrda);

D_{yillik} – joriy davrdagi o'rtacha yillik daromad (yillik ish haqi miqdori (oklad bo'yicha) yoki shaxsiy daromadi hajmi);

S_d – daromad solig'i va ish haqidagi boshqa ushlanmalar;

n – pensiyaga chiqishiga qolgan yillar (pensiya yoshidan hozirgi yoshi ayirladi);

V – inflyatsiya hisobiga diskontlash stavkasi, $V^n = 1/(1+i)^n$;

i – joriy davrdagi inflyatsiya darajasi.

Inson hayotining qiymatini baholash davlat va biznes tuzilmalari tomonidan ham doimiy amalga oshirilgan, chunki, bu qiymat bir tomondan, qonunlar va strategiyalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi shart bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'lim holatida turli tuzilmalarning minimal javobgarlik hajmini aniqlashda katta amaliy ahamiyatga ega. Zotan, inson o'limi uchun adolatli tovon puli mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichidir.

Ayni paytda, mamlakatimizda ish paytida yoki transportda turli xil favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga tovon puli belgilaydigan bir qator qonunlar mavjud. Ta'kidlash kerakki, to'lovlar ikki manbadan, ya'ni

sug'urta kompaniyalarining majburiy va ixtiyoriy sug'urta doirasidagi zaxiralari hamda byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Shu nuqtai-nazardan, majburiy sug'urta tizimida sug'urta summasi miqdorini belgilashda inson hayotining qiymati muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qilishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi va O'zbekistonda majburiy sug'urta doirasida inson o'limi uchun sug'urta pulining miqdorini belgilashda inson hayotining qiymati qanchalik inobatga olinganligini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali taqqoslash mumkin (1-jadval).

1-jadval
Majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta summalarining miqdori

Majburiy sug'urta turlari	Rossiya Federatsiyasi (wikipedia.org, 2024) rubl yoki AQSh dollarida*	O'zbekiston, so'm yoki AQSh dollarida*
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi (hayot va sog'liq uchun) (Qaror, 2019)	500 000 rubl yoki 5 695 dollar	26 000 000 so'm yoki 2 067 dollar
Tashuvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi (Qaror, 2015)	2 025 000 rubl yoki 23 064 dollar	40 000 000 so'm yoki 3 180 dollar
Ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi (Qaror, 2009)	Yillik mehnatga haq to'lash fondi	Yillik mehnatga haq to'lash fondi
Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi (Qaror, 1994)	sug'urta to'lovi – 2 337 353 rubl yoki 26 621 dollar; bir martalik to'lov – 3 000 000 rubl yoki 34 169 dollar.	BHMning 7 yilligi miqdorida, ya'ni 28 560 000 so'm yoki 2 270 dollar
Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish (Nizom, 2010)	–	BHMning 200 baravari miqdorida, ya'ni 68 000 000 so'm yoki 5 405 dollar
Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari qutqaruvchilarining hayoti va sog'lig'ini majburiy sug'urtasi (Qaror, 2015)	–	BHMning 84 baravari miqdorida, ya'ni 28 560 000 so'm yoki 2 270 dollar

*AQSh dollarining kursi 27.06.2024 yil sanasiga.

** O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdori – 340 000 so'm.

Xulosa (Conclusions/Заключения)

Mazkur tadqiqot ishimizda olib borilgan tahlillar natijasida umumiy xulosa shuni ko'rsatadiki, inson hayotining qiymatini baholash aholining hayot sifatini oshirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, o'rganilgan barcha tadqiqotlar natijalari inson hayotining qiymatini baholashga asoslangan yondashuv hayot sug'urtasi summasini aniqlashning eng munosib metodi ekanligini tasdiqladi.

Bizning fikrimizcha, inson hayoti qiymatini baholashning zamonaviy metodlarini qo'llash inson o'limi tufayli yuzaga keladigan zararlarni miqdorini to'g'ri aniqlash va hayot sug'urtasi summasini munosib o'rnatishga xizmat qiladi. Chunki, inson hayotining qiymati - mamlakat o'z fuqarolarini qanchalik qadrlashini hamda ularning hayoti davomiyligi va xavfsizligini oshirishga qancha mablag' sarflayotganini ko'rsatadi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda inson hayoti qiymatining yuqoriligi davlatning o'limni qisqartirish, ishlab chiqarish va transport xavfsizligini oshirish, samarali sog'liqni saqlash va h.k.lar uchun katta miqdordagi mablag'ni sarflashga tayyorligidan dalolat beradi.

Shu jihatlarni inobatga olgan holda, korxonalarning sug'urtaviy himoyasini rejalashtirishda, favqulodda vaziyatlar natijasida xodimlarga va uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha javobgarlik chegaralarini belgilashda, aholining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalashning qiymatini aniqlashda, hayot sug'urtasi kompaniyalarining sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishda, hayot sug'urtasi summasini mutanosib shakllantirishda va boshqa bir qator vazifalarni hal etishda inson hayotining qiymatini baholash metodologiyasidan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish lozim deb hisoblaymiz.

References:

- Greene J. (1885) An Agent's Work: How to Represent the Connecticut Mutual Life Insurance Company. A Textbook
- Huebner S.S. (1915) Life Insurance: A Textbook D. Appleton
- Huebner S.S. (1924) Proceedings of the 35th Annual Convention of the National Association of Life Underwriters. New York: National Association of Life Underwriters.
- Huebner S.S. (1927) The Economics of Life Insurance. New York: Crofts.
- Hofflander A.E. (1966) The Human Life Value: A Theoretical Model // The Journal of Risk and Insurance Vol. 33, No. 4, pp. 529-536. <https://doi.org/10.2307/251227>

6. Haslifah Hashim and David Service (2013) Modelling the life insurance needs using the human life value revision method // *Journal of Physics: Conference Series* 423, doi:10.1088/1742-6596/423/1/012058
7. Аганбегян А. (2012) Достижение высшего уровня продолжительности жизни в России // *Экономическая политика*. № 2, с. 134–156.
8. Быков А.А. (2007) О методологии экономической оценки жизни средне-статистического человека // *Проблемы анализа риска*. №4(2), с. 178–191.
9. Зубец А.Н., Новиков А.В. (2018) Численная оценка стоимости жизни человека в России и в мире // *Финансы: теория и практика / Finance: Theory and Practice*. № 22(4), с. 52–75. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2018-22-4-52-75>
10. Трунов И.Л., Айвар Л.К., Харисов Г.Х. (2006) Эквивалент стоимости человеческой жизни // *Представительная власть – XXI век: законодательство, комментарии, проблемы*. №3(69), с. 24–29.
11. Anvarova, M., Kungratov, I. (2023). Foreign experiences in the development of the digital education system. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi talabalar nigohida*, 1(1), 731–733.
12. Qaror (1994) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 1 yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyati shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida”gi 38-sonli Qarori.
13. Qaror (2009) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 177-sonli Qarori.
14. Qaror (2015) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 sentyabrdagi “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 266-sonli Qarori.
15. Qaror (2015) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 22 iyundagi “Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari qutqaruvchilarining hayoti va sog'lig'ini majburiy sug'urtasi to'g'risida”gi 166-sonli Qarori.
16. Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 martdagi “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 222-sonli Qarori.
17. Nizom (2010) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 28 dekabrda 321-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Nizom.
18. lenta.ru (2019) <https://lenta.ru/news/2019/10/23/strahovka/> Россияне оценили стоимость человеческой жизни.
19. samoupravlenie.ru (2024) <http://www.samoupravlenie.ru> Источник: Washington ProFile.
20. wikipedia.org (2024) https://ru.wikipedia.org/wiki/Стоимость_человеческой_жизни..
21. Шипицына С.Е. (2013) Экономическая оценка жизни человека — индикатор диагностики кризисных явлений // *Экономика региона*. №2, с. 43–54.